

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024 yil 29-noyabr, № 248 (8871) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

DINIY BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK – DOIMIY E’TIBORDA

Davlat rahbariga ijtimoiy muhitni mustahkamlash hamda diniy ma’rifatni rivojlantirish borasidagi ishlar haqida axborot berildi.

O‘zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Konstitutsiyamizda hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlangan. Ming shukrki, yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhiti hukm surmoqda. Barcha din vakillari ibodat amallarini emin-erkin ado etmoqda.

Oxirgi besh yilda diniy-ma’rifiy sohaga oid 3 ta qonun, 4 ta Prezident farmoni va ko‘plab qarorlar qabul qilindi. Yig‘ilishda ularning ijrosi din vakillariga xizmat qilayotgani qayd etildi.

Xususan, yurtimiz musulmonlari uchun sharoitlarni yaxshilash maqsadida 100 dan ortiq masjidlar barpo etildi, 555 tasi ta’mirlandi. Diniy tashkilotlar uchun bino qurilishiga yer ajratish tartibi joriy qilindi.

Haj kvotasi avvalgiga qaraganda 2 karra oshirildi. Keyingi yetti yilda 60 mingdan ziyod yurtdoshlarimiz haj amallarini bajardi. Umra safarlarini tashkil qilish qonuniy tartibga solindi.

Sohada malaka va ilm masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro markazlari, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy tadqiqotlarga zamin bo‘lmoqda. Toshkent islom instituti, Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, Imom Termiziy o‘rta maxsus ta’lim muassasasida malakali mutaxassislar tayyorlanyapti. Shuningdek, 30 ming fuqaro “Qur’oni karim va tajvid” kurslarini tamomladi.

Qabristonlarni obod qilish – savobli ish. So‘nggi yillarda Abu Iso Termiziy, Abu Muin Nasafiy, Sulton Uvays Qaraniy, Suzuk ota yodgorlik majmualari obod qilindi. Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi va Islom sivilizatsiyasi markazida bunyodkorlik davom etmoqda. “Vaqf” xayriya jamoat fondi tomonidan ham 90 ta ziyoratgoh ta’mirlanib, obodonlashtirildi.

Islom ma’rifatini keng yoyish va tajriba almashish maqsadida xalqaro aloqalar ham kengaytirilmoqda. Jumladan, bu yil yurtimizda “Islom – ezgulik va tinchlik dini” hamda “Imom Termiziy ilmiy merosining islom sivilizatsiyasida tutgan o‘rni” mavzularida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, Bag‘rikenglik haftaligi o‘tkazildi.

Ma’lumki, bugun kibermakonda xavf-xatarlar kuchayib bormoqda. Chegaralar va qonunlarni tan olmaydigan internet tarmoqlari orqali radikal g‘oyalar ham kirib kelmoqda. Buning oqibatida aholining nisbatan zaif qatlamlari, jumladan, yoshlar turli noqonuniy guruhlar ta’siriga tushib qolayotgani afsuslanarli. Butun jamoatchilik bundan ogoh bo‘lishi, ulamolar va nuroniylar to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishi kerak.

Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlari tajribasi asosida mahallalarda “Oqsoqollar va ota-onalar kengashlari” tuzilgani bunda muhim o‘rin tutmoqda. Yurtimiz hojilarining “Yangi O‘zbekistonning fidoyisi bo‘lib, ma’naviyat targ‘ibotchisiga aylanamiz” degan tashabbusi ham ijtimoiy vaziyatni yaxshilashda ijobiy qadam bo‘ldi.

Bunday xayrli ishlarni davom ettirib, mahallalarda ma’naviy muhitni mustahkamlash, yoshlarni ilmu hunarga chorlash muhimligi aytildi. Mutasaddilarga ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish, bandligini ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Mamlakatimizdagi diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik doimiy e’tiborda bo‘lishi ta’kidlandi.

O‘zA.

MEVA-SABZAVOT YETISHTIRISH, QAYTA ISHLASH VA UNI EKSPORT QILISH RAG‘BATLANTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28-noyabr kuni meva-sabzavot yetishtirish, qayta ishlash va eksportini ko‘paytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Mamlakatimizda 4 million gektardan ziyod sug‘oriladigan ekin maydonlari bor. Ularda, asosan, oziq-ovqat mahsulotlari va iqtisodiyot tarmoqlari uchun xomashyo yetishtirilmoqda. Oxirgi yillarda paxta va g‘alla maydonlaridan 260 ming gektar dehqonchilik uchun ajratilgan. Endi yana 104 ming gektar berilishi mo‘ljallangan.

Bu yil oziq-ovqat eksporti o‘tgan yilga nisbatan 370 million dollarga ko‘payib, hozirgacha 2 milliard dollardan oshdi. O‘zbekiston o‘rik eksporti bo‘yicha dunyoda uchinchi, gilos va shaftoli bo‘yicha yettinchi, mosh va boshqa dukkakli mahsulotlar bo‘yicha o‘ninchi o‘ringa chiqdi. Birgina gilos 16 ta mamlakatga eksport qilinmoqda.

Eksport Qoraqalpog‘iston va Jizzaxda 2,2 barobar, Xorazmda 1,8 barobar va Surxondaryoda 1,6 barobar ko‘paygan. Lekin ayrim viloyat va tumanlarda o‘zgarish sezilmagan. Masalan, yeri ko‘p bo‘lgan Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatidagi o‘sish ularning imkoniyatiga mos emas. Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida eksport o‘tgan yildagiga nisbatan kamaygan.

Yurtimizda 5 mingdan ortiq qishloq mahallasi bor. Tuman markazi va shaharlarda yana 2 mingdan ko‘proq mahalladagi xonadonlar tomorqaga ega. Lekin atigi mingta mahallaga ko‘chat tarqatilib, mahsulotni sotib oluvchi tadbirkor biriktirilgan. 26 ta tumanda tomorqa xizmati yo‘lga qo‘yilmagan. Ba’zi joylarda dehqonlarga sifatsiz urug‘ sotilgani tufayli mahsulot yo‘qotilgan.

Shu bois har bir mahalla, xonadon va fermer xo‘jaligiga O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi xodimi biriktirilishi belgilandi.

Tomorqa va uylar oldi, mahalladagi ko‘chalar bo‘yi, dala cheti va kanallar atrofida 650 ming gektar yer bor. Bu ham oziq-ovqat mahsulotlari va daraxtlar ekish uchun yaxshi imkoniyat. Endi bu yerlarning aniq o‘lchami tasdiqlanib, “Agroplatforma”ga kiritiladi. Aholi va fermerlar sifatli urug‘ tanlash, dori va o‘g‘itni to‘g‘ri qo‘llash, mahsulotni sifatli saqlashga o‘rgatiladi.

Bu sa’y-harakatni rag‘batlantirishga katta yengilliklar beriladi. Dala chetini samarali ishlatgan fermerlarga tadbirkorlar reytingida qo‘shimcha ball hisoblanadi, ichki fitosanitar sertifikati bir yil davomida bepul beriladi. Fermerning barcha yerlari uchun yer solig‘ini ikki yilga bo‘lib to‘lashga ruxsat etiladi. “Oilaviy tadbirkorlik” dasturidagi 100 million so‘mgacha bo‘lgan kreditlar soddalashgan tizimda ajratiladi. Dala chetlari hisobi, yetishtirilgan mahsulot hajmi “e-Fitouz” portali orqali nazorat qilib boriladi.

Mahallalardagi ko‘chalar va ko‘p qavatli uylar atrofida 10 million tup uzum ekish tashabbusi bildirildi. Ular o‘sib, hosilga kirguncha Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi barcha agrotexnik tadbirlarga ko‘maklashadi. Mahsulotlarni sotib olish uchun mahallalar eksportchi korxonalarga bog‘lanadi.

Yig‘ilishda meva-sabzavotlarni qayta ishlash masalasi tahlil qilindi.

Pishiqchilik davrida narx tushib ketishi oqibatida karam, lavlagi, piyoz kabi mahsulotlar dalada qolib ketyapti. Bu yil tarvuzning ham katta qismi yig‘ib olinmadi. Holbuki, ehtiyojdan ortgan mahsulotni quritib, kukun shaklida eksport qilish mumkin, bunga qandolatchilik korxonalarida talab katta.

Eksport yil davomida bo‘lishi uchun “shok” usulida muzlatish texnologiyasi samarali. Shu bois qishloq xo‘jaligi vaziri va viloyat hokimlariga kelasi yil shunday loyihalarni ishga tushirish topshirildi.

Shuningdek, 10 ta agrologistika markazi, mingdan ortiq sovitkichli omborxona tashkil etiladi. 40 ming gektardan ortiq sanoatlashgan intensiv mevali bog‘ va tokzorlar barpo etiladi.

Ma’lumki, jahon bozorida organik mahsulotlar narxi 2-3 barobar qimmat. Yurtimizda 10 ta tumandagi 3 ming 900 gektar maydonda organik sertifikat bor, xolos. Andijon, Jizzax va Xorazmda esa bunday mahsulot yetishtiriladigan birorta yer yo‘q.

Vaholanki, suv omborlari atrofida pestitsid ishlatilmaydigan 2 ming gektar yerda ekin yetishtirilyapti. Faqat ularga organik sertifikat olinib, toza urug‘ va ko‘chatlar ekilsa bo‘lgani.

Shu kabi imkoniyatlar ko‘rsatib o‘tilib, mutasaddilarga 2025-yilda organik maydonlarni 10 ming gektarga, kelgusi uch yilda 100 ming gektarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Endi organik maydon tashkil qilgan fermer va dehqonlarga yerni lazer bilan tekislash xarajati davlat tomonidan qoplab beriladi. “Organik”, “Global Gap”, “Halol”, “Kosher” kabi sertifikatlarni olish xarajatlari uchun tadbirkorlarga subsidiya ajratiladi.

Bu yil O‘mon Sultonligining yirik savdo tarmoqlarida O‘zbekiston mahsulotlari uchun alohida rasta ajratilib, ilk bor gilos, shaftoli va o‘rik eksporti yo‘lga qo‘yildi. Buni Malayziya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya va Yevropada ham kengaytirish zarurligi ta’kidlandi. Savdo yarmarkalari tashkil qilish, fitosanitar ruxsatnoma olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Umuman, ushbu chora-tadbirlar orqali kelgusi yilda meva-sabzavot eksportini 3,5 milliard dollarga yetkazish mumkinligi qayd etildi.

Yig‘ilishda, shuningdek, atrof-muhitni asrash masalasiga ham to‘xtalib o‘tildi. Mutasaddilar Andijon, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida chiqindilarni qayta ishlash loyihalarini amalga oshirish yuzasidan axborot berdi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasiga yana bir bor e’tibor qaratildi. Bu harakat doirasida har yili bahor va kuzda 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish belgilangan. Shu paytgacha vazirlik, idora va hokimliklar tomonidan 257 ta “yashil bog‘” barpo etilib, ularning soni 517 taga yetgan.

Prezidentimiz bu xayrli ishda davlat tashkilotlari namuna bo‘lishi, qurilish kompaniyalari ijtimoiy mas’uliyat olishi kerakligini ta’kidladi.

Yig‘ilishda ijro intizomi masalasi ham tahlil qilindi. Yil yakunigacha oz qolgani, belgilangan barcha vazifalarni bajarish natijadorlikni oshirishi qayd etildi.

Kelgusi yil har bir vazirlik, viloyat va tumandagi ishlarning tizimli hisobi olib boriladi. Bu elektron platformaga o‘tkazilib, so‘rov ham, maosh ham shunga bog‘lanadi.

Bosh vazirga ushbu tizimni yo‘lga qo‘yib, ijro intizomi va nazoratini kuchaytirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

O‘zA.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

E.O.TURDIMOVNI SAMARQAND VILOYATI HOKIMI LAVOZIMIDAN OZOD ETISH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga muvofiq, Erkinjon Oqbutayevich Turdimov boshqa ishga o‘tishi munosabati bilan Samarqand viloyati hokimi lavozimidan ozod etilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 28-noyabr

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

A.M.BOBOYEVNI SAMARQAND VILOYATI HOKIMI VAZIFASINI BAJARUVCHI ETIB TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga muvofiq, Adiz Muzafarovich Boboyev Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi etib tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 28-noyabr

E’tirof

XALQARO REYTINGLARDAGI KO‘RSATKICHLARIMIZ TOBORA YAXSHILANMOQDA

Ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan davlat boshqaruvini samarali tashkil etish, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash, aholi va xalqaro hamkorlar uchun ochiq, shaffof va samarali muhit yaratishga qaratilgan tizimli islohotlar natijasida xalqaro reytinglardagi ko‘rsatkichlarimiz tobora yaxshilanmoqda.

Oliy Majlis Senati Raisi boshchiligidagi Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi tomonidan mutasaddi vazirlik va idoralar hamkorligida ustuvor xalqaro reyting va indekslarda yurtimiz o‘rnini yaxshilash choralari ko‘rib kelinmoqda.

Xususan, shu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar muntazam muhokama qilib kelinadi. Ayni chog‘da turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning ustuvor xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimizning o‘rnini yaxshilash maqsadiga xizmat qilishi ta’minlanib, bu boradagi ishlar samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish choralari ko‘rilayotir.

Shunga mos holda ilg‘or xalqaro tajriba asosida davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha taklif hamda tashabbuslar ishlab chiqilyapti. Natijada esa xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnimiz yuqorilab borayotgani e’tiborga molik.

Jumladan, Jahon bankining Statistika faoliyati samaradorligi reytingida 2023-yil yakunlariga ko‘ra mamlakatimiz 17 pog‘onaga ko‘tarilib, 217 davlat orasida 62-o‘rinni egalladi.

So‘nggi besh yilda esa yurtimiz mazkur indeksda 80 pog‘onaga yuksaldi hamda MDH mamlakatlari bo‘yicha 4-o‘rinni band qildi.

➡2

Xabar

SAMARQAND VILOYATIGA YANGI RAHBAR TAYINLANDI

Samarqand shahrida xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o‘tdi.

Sessiyada O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov ishtirok etdi.

Keyingi yillarda viloyat iqtisodiyoti rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Investitsiya va tadbirkorlik muhiti yanada yaxshilanib, yangi tarmoq hamda yo‘nalishlarga asos solindi. Turizm hududning drayver sohasiga aylantirildi. Natijada aholining ijtimoiy sharoitlari, hayot sifati yuksalib bormoqda. Yig‘ilishda ushbu jihatlar alohida ta’kidlandi.

Sessiyada tashkiliy masala ko‘rildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmonlariga asosan Erkinjon Turdimov boshqa ishga o‘tishi munosabati bilan Samarqand viloyati hokimi lavozimidan ozod etildi. U ushbu vazifada 2018-yil iyul oyidan buyon faoliyat yuritayotgan edi.

Hisob palatasi raisi lavozimida ishlab kelgan Adiz Boboyev Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.

“Xalq so‘zi”.

Fakt va raqamlar



O‘ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISH YO‘LIDA

So‘nggi yetti yil ichida amalga oshirilgan islohotlar YAIMning 2 barobar o‘sishiga sabab bo‘ldi.

- Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi – **120** mlrd. dollar.
- Bandlikning o‘sish sur’atlari – **5,6** foiz.
- Mehnat unumdorligi – **25** foiz.

YAIM hajmi **100 mlrd.** dollarni tashkil etib, jahondagi eng yirik **60 – 70 ta** iqtisodiyotlar qatoriga kirdi. Bugungi kunda mamlakatimiz dunyoda o‘zining mavqeiga ega bo‘lgan iqtisodiy hamkor sifatida tanildi.

Manba: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi.

VATAN VA VIDJON

Insonga ota-ona va Vatanni tanlash imkoniyati berilmagan. Dunyoga kelgan va kindik qonimiz to‘kilgan manzil – Vatan hisoblanadi.

Xuddi ota-onani norizo etib bo‘lmaganidek, Vatanni ham yomonotliq qilishdan saqlanish kerak. Vatan mustamlaka yoki mustaqil bo‘ladimi buning ahamiyati yo‘q. U baribir muqaddasligicha qolaveradi.

Bedor o‘y

Islom ta’limotida ota-ona kabi Vatan ham ulug‘lanadi. Musulmon kishi Vatanga nisbatan turli bo‘htonlar, gina-kuduratlar, noroziliklar bildirishdan qaytariladi.

Marhum shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning murakkab hayot yo‘li ham bunga yorqin misol. U kishi vaziyat taqozosi bilan bir necha yillar xorijda yashashga majbur bo‘ladi. Dunyoga mashhur ulamo musofirlikda o‘tkazgan kunlarida Vatanimiz haqida bir og‘iz ham salbiy fikr bildirmaydi. Hatto bunga chaqirilsa-da, keskin rad javobini beradi. Bu olimning ishi emasligini qat’iy bildiradi. Sinovlar ortda qolib Vatanga qaytish imkoniyati paydo bo‘lishi bilan yurtni ixtiyor etadi. Vatandoshlari bilan yorug‘ yuz ila diydor ko‘rishadi. Mana, ibrat! Mana, vijdon va imon!

Inson hayoti turli sinovlardan, baland-pastliklardan iborat. Nima bo‘lganda ham, ota-ona va Vatan nomiga ehtiyotkorona yondashish zarur.

Bir o‘ylab ko‘ring, ota-onasi va Vatanidan kechgan, noligan odamdan nima kutib bo‘ladi? Bundaylar uchun muqaddas yana nima bor?

Nazarimda, qanday ahvolga, vaziyatga tushishimizdan qat’i nazar, avvalo, Yaratgandan, keyin Vatandan, ota-onadan norizo bo‘lishga haqqimiz yo‘q. Alloh barchamizni bunday yuzi qoralikdan asrasin.

Xizmat taqozosi bilan xorijda ko‘p bo‘lishga to‘g‘ri keladi. To‘g‘risini tan olish kerak, qanday yaxshi sharoitda bo‘lishimizdan qat’i nazar, kun sanayman. Tezroq ona yurtga qaytishga intilaman.

Hayot bor ekan, muammolar, kamchiliklar bor. Aslida ularni bartaraf etish ham o‘zimizning qo‘limizda.

Vatan aybdor emas.

Adolatsizlik nimaligini, uning yuki qanchalik og‘ir ekanini biz singari katta avlod vakillaridan so‘rash kerak. O‘z tanamda sinab ko‘rganman. Lekin Vatanimga bo‘lgan muhabbat hech qachon so‘nmagan.

2016-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev inson qadri degan bebaho ne’matni bizga qaytarib berdi. Tuproqqa teng bo‘lgan qadr. Toptalgan qadr. Tushovlangan qadr. Xo‘rlangan qadr... Jamiyatdan chiqarib yuborilganlar, yakkalanganlar, haq-huquqlari poymol bo‘lganlar, dodini kimga aytishni bilmay yurganlar yarasiga malham qo‘ydi.

Og‘ir, qiyin davrlarda ham Vatan, ota-ona kabi ulug‘ tuyg‘ularni qalbimizning eng to‘riga joylashimiz zarur. Vatan oldidagi burch va mas’uliyat abadiy qoladi. Ajdodlardan avlodlarga o‘tadi…

Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romanida “Oltovlon va yettinchi” nomli hikoya keltiriladi: “Ko‘p o‘tmay hammamiz begona yurtlarga tarqalib ketamiz. Peshonada borini ko‘ramiz. Kelinglar, ona Yerimiz bilan, nonu tuzimiz bilan xayrlashaylik. Vidolashgach, har kim o‘z yo‘liga ketadi. Biz o‘zimiz bilan tariqcha narsa olganimiz yo‘q. Vatanni olib ketib bo‘lmaydi. Faqat sog‘inch va armonlarimizni olib ketamiz…”

➡3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 29-noyabr

Senat qo‘mitasida

TASHABBUSLI BYUDJET IJROSI QANDAY BORYAPTI?



Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi majlisi bo‘lib o‘tdi.

Unda tashabbusli byudjet jarayonlarida g‘olib deb topilgan loyihalar vaqtida amalga oshirilishi holatini o‘rganish natijalari yuzasidan mas’ul vazirlik hamda hududlar rahbarlarining axborotlari eshitildi.

Qayd etilganidek, tashabbusli byudjet jarayoni takomillashtirilib, “Bir fuqaro – bir ovoz” tamoyili yo‘lga qo‘yildi. “Mening yo‘lim” loyihasi esa tashabbusli byudjet jarayoni birinchi mavsumi bilan qo‘shib o‘tkazilishi belgilandi.

Joriy yilda tashabbusli byudjet jarayonlari uchun ajratilgan umumiy mablag‘lar miqdori 5,7 trln. so‘mni tashkil etgan va 2023-yildagiga nisbatan 1,2 trln. so‘mga yoki 26 foizga oshgan.

Yilning ikki mavsumi davomida “Ochiq byudjet” portaliga fuqarolar tomonidan kelib tushgan 63 mingdan ortiq loyihalardan 52 mingdan ziyodi, ya’ni 83 foizi tuman ishchi komissiyalari tomonidan ovoz berish jarayoniga o‘tkazilgan va ovoz berish yakuniga ko‘ra 5,6 trln. so‘mlik qariyb 4,8 mingta loyiha g‘olib deb topilgan. Ularning 1686 tasi ichki yo‘llarni va 1446 tasi maktablarni ta’mirlash va jihozlash loyihalaridan iborat.

Amaldagi tartibga kiritilgan o‘zgarishlarga ko‘ra xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari qaroriga asosan tuman (shahar) byudjetlarining qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan 56 ta loyiha uchun qo‘shimcha ravishda mablag‘ ajratilib, g‘olib sifatida e’lon qilingan.

Majlisda tashabbusli byudjet jarayonlarini amalga oshirishda ayrim muammo va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgani ham aytib o‘tildi.

Xususan, Zarafshon shahridagi aeroport bino va inshootlarini hamda Shahrixon tumanidagi Beruniy istirohat bog‘ida 42 metr balandlikdagi Charxpalak o‘yingohini qurish loyihalari tadbirkorlik xususiyatiga ega bo‘lishiga qaramay, ovoz berish bosqichiga o‘tkazilgani va ular eng ko‘p ovoz olgan holda g‘olib deb topilgani jiddiy tanqid qilindi.

Tashabbusli byudjet jarayonlarida ovoz yig‘ishga majburlash holatlari yuzasidan “1282” ishonch telefoni raqamiga 74 ta shikoyat kelib tushgani va ushbu holatlar yuzasidan ta’sirchan choralar ko‘rish kerakligi uqtirildi.

Shuningdek, majlisda 2024-yilgi tashabbusli byudjet jarayonlarining birinchi mavsumi doirasida g‘olib deb topilgan 993 ta loyiha bo‘yicha qurilish va xarid qilish ishlari hanuzgacha davom etayotgani yuzasidan mas’ul rahbarlarning axborotlari eshitildi.

Majlis yakunlari bo‘yicha Senat qo‘mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

XALQARO REYTINGLARDAGI KO‘RSATKICHLARIMIZ TOBORA YAXSHILANMOQDA

1

Mazkur indeksda mamlakatimizning statistik salohiyati, erishayotgan yutuqlari va milliy statistika tizimini rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlari natijalari aks ettirilgan.

Milliy statistika tizimiga sifatni boshqarishning ilg‘or usullari keng joriy etildi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari global indikatorlari asosida Milliy BRM indikatorlari shakllantirildi va u doimiy e’lon qilib borilmoqda. Milliy va xorijiy foydalanuvchilar uchun rasmiy statistika ma’lumotlarining maksimal darajada ochiqligi hamda shaffofligi ta’minlandi, jumladan, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari xalqaro statistik to‘plamlarda va ma’lumotlar bazalarida aks ettirildi. O‘zbekistonda milliy hisoblar zamonaviy tizimi amaliyotga tatbiq qilindi. Albatta, bu omillar 2023-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonning mazkur indeksda ko‘tarilishiga zamin yaratdi.

E’tiborli jihati shundaki, mazkur yo‘nalishdagi ishlarni tizimli davom ettirish hamda mamlakatimizning ushbu reytingdagi o‘rnini yanada yaxshilash maqsadida Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashi tomonidan istiqboldagi aniq chora-tadbirlar belgilab olingan.

“Xalq so‘zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HAYOTIY MASALALAR VA AMALIY TAKLIFLAR

Avval xabar qilinganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi qo‘mitalar, siyosiy partiyalar fraksiyalari Prezidentimizning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlislaridagi nutqlaridan kelib chiqib, amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarni belgilab olishmoqda.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi yig‘ilishida ekologik masalalar, atmosfera havosini muhofaza qilish, ekologik madaniyatni yuksaltirish, O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan BMT rezolyutsiyalarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Ekologiya sohasida qonunchilik talablari ijrosini ta’minlashda davlat organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mas’uliyatini kuchaytirish har bir deputatning qat’iy vazifasiga aylanishi lozimligi aytib o‘tildi. 2025-yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”, deb e’lon qilingani mas’ul qo‘mita a’zolari oldiga muhim vazifalarni qo‘yishi ta’kidlandi.

Deputatlarning qayd etishicha, kelgusi yilning bunday nomlanishi “yashil” g‘oyalarni ro‘yobga chiqarishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Munozaralarda ekologiya sohasiga oid sa’y-harakatlarni amalga oshirishda tegishli vazirliklar bilan hamjihatlikda ish olib borishni yanada kuchaytirish zarurligiga alohida urg‘u berildi.

Shuningdek, qo‘mita tomonidan ustuvor vazifalarni o‘z ichiga olgan reja loyihasi atroflicha muhokama etilib, kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi yig‘ilishida qishloq xo‘jaligining barcha tarmog‘i, avvalo, meva-sabzavotchilikni intensiv rivojlantirish, yangi urug‘ navlarini yaratish orqali importni 50 foizga qisqartirish bo‘yicha dasturlar ijrosini ta’minlashda deputatlik korpusi oldida muhim vazifalar borligi qayd etildi. Buning natijasida muayyan yutuqlarga erishiladi. Ya’ni qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni 1,3 barobar oshirish, har gektar yerdan olinadigan o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga yetkazish, sohada eksport hajmi 10 milliard dollardan iborat bo‘lishi ta’minlanadi.

Deputatlar bugun dunyoda ekologik vaziyat yomonlashib, tabiiy ofatlar va qurg‘oqchilik ko‘payib borayotgan bir paytda suv resurslaridan samarali foydalanish, tejamkor texnologiyalarni keng qo‘llash, suvni iqtisodiyotning barcha tarmog‘i, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida samarali ishlatish masalalarida ham fikr almashdilar.

Davlatimiz rahbarining kelgusi yilda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish uchun 5 trln. so‘m, kanallarni betonlash uchun 800 mlrd. so‘m yo‘naltirilishiga oid taklifi dolzarb ekani e’tirof etildi. O‘tgan yilda 550 kilometr kanal va ariqlar betonlangani evaziga 200 ming gektarda suv yaxshilangani belgilangan vazifalarning nechog‘li muhim ekanini ko‘rsatadi.

Bu boradagi sa’y-harakatlarni amalga oshirishda deputatlar o‘z okruglarida faol ishtirokchi va targ‘ibotchi bo‘lishiga oid aniq vazifalar belgilab olindi.

Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasi yig‘ilishida fuqarolik jamiyati institutlari bilan muloqotni kuchaytirish maqsadida har bir qo‘mita qoshida ularning vakillaridan iborat jamoatchilik kengashlarini tuzish, fuqarolarning tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlash maqsadida esa quyi palata huzurida Jamoaviy tashabbuslar bo‘yicha parlament komissiyasi tashkil etish masalasi muhokama markazida bo‘ldi.



Qo‘mita a’zolari tomonidan parlament diplomatiyasini yanada rivojlantirish, bunda qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uyg‘unlashtirish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini kamaytirish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish masalalari bo‘yicha parlament komissiyalarini tashkil etishga oid takliflar ilgari surildi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbarining nutqlaridan kelib chiqib, fuqarolik jamiyati institutlari bilan muloqotni kuchaytirish, ularning taklif va tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlash zarurligi ta’kidlandi.

Ijtimoiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘nalishlarida nazarda tutilgan ustuvor vazifalar yuzasidan deputatlarning fikr-mulohazalari tinglandi hamda qo‘mitaning kelgusi besh yillik faoliyatiga doir “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish belgilab olindi.

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi va uning quyi palatadagi fraksiyasi qo‘shma yig‘ilishida partiyaning Saylovoldi dasturida ilgari surilgan qator g‘oyalari, jumladan, istirohat bog‘lari, sayilgohlar va xiyobonlarni xususiylashtirishni taqiqlash bo‘yicha qat’iy pozitsiyasi mamlakat rahbari tomonidan e’tirof etilgani qayd etildi.

Shundan kelib chiqib, ishlab chiqilgan qonun loyihasi yaqinda quyi palata yalpi majlisida qizg‘in muhokama qilinib, deputatlar tomonidan birinchi o‘qishda qabul qilingani aytib o‘tildi. Deputatlarning fikricha, xalqimizning madaniy hordiq olishi uchun xizmat qiluvchi xiyobonlar va istirohat bog‘lari umumxalq ahamiyatiga ega maskanlar sifatida avloddan-avlodga bus-butun holda yetkazilishi kerak va ularni xususiylashtirishga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Yig‘ilishda partiyaning dori-darmonlar ustidan nazoratni kuchaytirishga oid tashabbuslari ham muhokama qilindi. Bu yo‘nalishda ham sog‘liqni saqlash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, aholining dori-darmonlar narxi va sifatidan qoniqishini ta’minlash uchun aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilayotgani ta’kidlandi.

Shuningdek, kelgusida partiya va uning fraksiyasi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar belgilab olindi. Qonunchilik tashabbuslarini tizimli amalga oshirish, parlament nazoratini kuchaytirish, mahalliy Kengash deputatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash kabi yo‘nalishlarda aniq ko‘rsatmalar berildi.

Yakunda bildirilgan fikr-mulohazalar va tavsiyalar asosida aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

“Xalq so‘zi”.

Seminar

Mahalliy Kengashlar ishtirokidagi muhokama

Oliy Majlis Senatida Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi a’zolari, tegishli vazirlik va idoralar vakillari, mahalliy Kengashlar deputatlari ishtirokida seminar tashkil etildi.

Unda “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonun loyihasi atroflicha muhokama qilindi.

Ishtirokchilar tomonidan Davlat byudjeti o‘rta muddatga mo‘ljallangan prognoz parametrlari va 2025-yil uchun byudjet loyihasi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarga mos ravishda ishlab chiqilgani alohida qayd etildi.

Ta’kidlanganidek, 2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti hamda 2026-2027-yillar uchun mo‘ljallar, asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning prognozlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar mahalliy byudjetlarining daromadlari, xarajat prognozlari va mahalliy byudjetlarga ajratilayotgan tartibga soluvchi transfertlar hajmlari qonun loyihasidan o‘rin egallagan.

Qonun loyihasida 2025-yilda yalpi ichki mahsulotning 6 foizga o‘sishi prognoz qilingan.

Qolaversa, senatorlar tomonidan qonun loyihasida yillik byudjetni shakllantirishda “Natijaga yo‘naltirilgan byudjet” tizimi hamda “Yashil byudjetlashtirish” tamoyillarini izchil joriy etish belgilanganiga ham tushuntirish berildi. Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tegishli darajadagi mahalliy byudjetlarni tasdiqlash jarayonida inobatga olinishi lozim bo‘lgan jihatlarga e’tibor qaratildi.

Seminarda mahalliy Kengashlar deputatlarining bu boradagi fikr-mulohazalari eshitildi hamda ularga zarur tavsiyalar berildi.

Hududlarning o‘ziga xos xususiyati va imkoniyatlarini hisobga olish zarur

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi hamda Hududiy vakillik organlari faoliyatini o‘rganish markazi hamkorligida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalari a’zolari uchun o‘quv seminari o‘tkazildi.

Ushbu tadbir parlament yuqori palatasi tomonidan mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari a’zolarining sohaga oid qonunchilikdagi yangiliklar, o‘zgarishlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmasini oshirish, o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida tashkil etildi.

Seminarda Senat hamda mahalliy Kengashlarning oldida turgan dolzarb vazifalar ko‘rib chiqildi va muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Xususan, sohaga oid qonunlarni ko‘rib chiqishda mahalliy Kengashlar deputatlarini jalb qilish hamda ularning fikrini olish, qonunlarni qabul qilishda hududlarning o‘ziga xos xususiyati va imkoniyatlarini hisobga olish zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, mahalliy Kengashlar va doimiy komissiyalar faoliyatini yanada rivojlantirish, qo‘mita va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni mustahkamlash hamda mahalliy ijro hokimiyati ustidan nazoratni kuchaytirish kerakligi urg‘ulandi.

Seminarda irrigatsiya hamda sug‘orish tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha hududiy dasturlar bajarilishini nazoratga olish, yashil qoplamalar – himoya o‘rmonzorlarini barpo etish, daraxtlarni ekish, parvarishlash va ular noqonuniy kesilishining oldini olishda yuzaga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilab olindi.

“Xalq so‘zi”.

Yoshlarni giyohvandlik girdobidan chiqarib olish – kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan “Yuksalish” umummilliy harakati bilan hamkorlikda yoshlar va o‘smirlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalar iste’molining oldini olishga qaratilgan jamoatchilik eshituvi o‘tkazildi.

Eshituv

Unda senatorlar, mahalliy Kengashlar deputatlari, vazirlik va idoralar mas’ullari, jamoatchilik vakillari, Yoshlar parlamenti a’zolari qatnashdi.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda yoshlar va o‘smirlar o‘rtasida giyohvandlik moddalarining iste’mol qilinishi nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo uchun dolzarb muammoga aylanib ulgurdi. Birgina 2019 – 2023-yillarda yurtimizda giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog‘liq jinoyatlarning 22 – 25 foizi yoshlar tomonidan sodir etilgani ham shundan dalolat berib turibdi. Bu ko‘rsatkich joriy yilning o‘tgan 8 oyida esa 33,4 foizni tashkil qilgan.

Tadbir davomida ichki ishlar organlari tomonidan 2021 – 2023-yillarda bunday dori vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo‘yicha zaruriy chora-tadbirlar ko‘rilgani, natijada 13,8 tonna giyohvandlik vositalari musodara qilingani aytib o‘tildi.

Qayd etish joizki, so‘nggi vaqtlarda onlayn platformalar giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar noqonuniy savdosi uchun qulay axborot maydoniga aylanmoqda. Masalan, internet makonida giyohvandlik vositasi va psixofaol moddalar savdosiga ixtisoslashtirilgan 52 ta axborot manbai aniqlangan. Ularning 14 tasi veb-saytlarda, 38 tasi telegram messenjeri orqali faoliyat yuritgan. Telegram messenjerida shu mazmunda 38 ta axborot manbai aniqlangan. Ularning umumiy foydalanuvchilari 119 ming nafardan ko‘proq ekani esa juda tashvishlidir.

Eshituv davomida mutasaddilar tomonidan bunday salbiy holatlarning oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va ko‘rilayotgan choralar haqida axborot berildi.

Shuningdek, jamoatchilik vakillari o‘zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob olish imkoniga ega bo‘ldi.

“Xalq so‘zi”.

XALQ MANFAATLARI – QONUN IJODKORLIGI ASOSI

Mamlakatimizda o‘tgan hafta siyosiy voqeliklarga boy bo‘ldi. Ya’ni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalq vakillari – parlament a’zolari bilan uch marotaba uchrashib, mamlakatimiz taraqqiyotiga oid hayotiy muhim masalalar yuzasidan muloqot qildi. Mazkur muloqotlarni, parlament a’zolari bilan muhokama etilgan barcha tashabbus va rejalarni, ularda ilgari surilgan g‘oya, maqsad va vazifalarni, mohiyat e’tiboriga ko‘ra Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga navbatdagi Murojaatnomasi bo‘ldi, deyishimiz mumkin.

Munosabat



Prezidentimizning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisida quyi palataning kelgusi besh yillikdagi eng ustuvor vazifalari yuzasidan qayd etib o‘tgan muhim tashabbus va xalqchil takliflari mamlakatimiz parlamenti faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Yurtboshimiz nutqi biz, xalq vakillari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Davlatimiz rahbari barcha siyosiy partiyalarning muhim tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlagan holda ularni qonun bilan mustahkamlab, amaliyotga joriy qilish uchun katta kuch-g‘ayrat bilan ishga kirishish lozimligini ta’kidladi. Shubhasiz, barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari, deputatlik korpusi vakillari kelgusi besh yilda qonunchilik tashabbusi va parlament nazorati huquqlaridan samarali foydalanib, saylovoldi muhim tashabbuslarni ro‘yobga chiqarishda jamiyatdagi o‘zgarishlar va talablarga mos ravishda yanada faol ish olib boradi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizning siyosiy tizimidagi shaffoflikni ta’minlash, ijtimoiy muammolarni hal qilishda aniq hamda samarali qonunlar ishlab chiqish va jamiyatning barcha qatlami manfaatlarini himoyalashga xizmat qiladi.

Ma’lumki, parlamentning asosiy vazifalaridan biri, bu – qonun ijodkorligi. Qonunchilik palatasi tomonidan o‘tgan besh yilda 130 dan ortiq yangi va yaxlit qonunlar qabul qilindi. Bu oldingi davrdagiga nisbatan 1,5 karra ko‘pdir. Ayni paytda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan va aniq ijro mexanizmlariga ega qonunlar ulushi kamligicha qolmoqda. Shundan kelib chiqib, kelgusi besh yilda biz, parlament a’zolari sifatli va aniq ijro mexanizmlariga ega bo‘lgan qonunlar ishlab chiqishga, ularning ijrosini nazorat qilish tizimini kuchaytirishga va qonun ijodkorligi jarayoniga fuqarolarni keng jalb etishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Bu borada Prezidentimiz taklif qilganidek, fuqarolar tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qonunchilik palatasi huzurida Jamoaviy tashabbuslar bo‘yicha parlament komissiyasi tashkil etilishi muhim ahamiyatga egadir.

Shuningdek, mamlakatimiz rahbari qonun ijodkorligi jarayoni, avvalo, jamiyatimizdagi dolzarb muammolar yechimiga, xalqimizning og‘irini yengil qilishga qaratilishi kerakligini alohida qayd etdi. Demak, aholi va keng jamoatchilikning fikrini o‘rganib, muhim ijtimoiy ahamiyatga oid qonunlarni qabul qilishga asosiy e’tiborni qaratishimiz zarur. Xususan, eskirgan uylar o‘rnida zamonaviy ko‘p qavatli uy-joylar qurish uchun “Renovatsiya to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish bugungi kunda dolzarbdir. Ushbu qonunning qabul qilinishi 20 ming gektar yer maydonini tejab, 4,5 million aholini uy-joy bilan ta’minlash imkonini beradi.

Yana bir qator belgilab berilgan hayotiy muhim masalalar – majburiy tibbiy sug‘urta tizimini qonun bilan mustahkamlab qo‘yish, xususiy maktab va bog‘cha qurmoqchi bo‘lgan investorlarni qo‘llab-quvvatlash, franchayzing, kapital bozori, startaplar sohasidagi, sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonunlarni qabul qilishga ahamiyat qaratishimiz maqsadga muvofiqdir.

Bu borada Qonunchilik palatasi tomonidan kelgusi besh yilda yangi qonunlar ustida ishlashni aniq belgilashga qaratilgan puxta o‘ylangan dastur qabul qilish borasida ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimizning “Deputat – bu xalq xizmatchisi, barchaga o‘rnak bo‘ladigan, siyosiy bilimi va ongi yuksak, o‘z Vatanini chin dildan sevadigan insondir” deya ta’kidlagani xalq vakillariga aholi manfaatlarini doimo ustuvor qo‘yish, qonun ijodkorligida faol ishtirok etish, saylovchilar bilan muntazam aloqada bo‘lish kabi muhim vazifalarni samarali olib borishda yuksak mas’uliyat yuklaydi.

Ma’lumki, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsulot hajmini 160 mlrd. dollarga yetkazish kabi ezgu maqsad qo‘yilgan. Hukumat tomonidan o‘z vaqtida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilgani, barcha imkoniyat ishga solingani tufayli bu yilning o‘zida yalpi ichki mahsulot hajmi 110 mlrd. dollarga yetishi kutilmoqda. Jahon banki 2024-yilda O‘zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyoda iqtisodiyoti eng tez o‘sayotgan uchta davlat qatoridan joy olganini e’tirof etdi. Kambag‘allik darajasi so‘nggi to‘rt yilda 23 foizdan 11 foizga tushdi. Bu yil yana 106 ming oila kambag‘allikdan chiqarilib, 9 foizga tushishi kutilmoqda.

Biz, parlament vakillari Hukumat bilan birgalikda kelgusi besh yillikda faol ish olib borib, islohotlar shiddatini pasaytirmasdan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotimizdagi o‘zgarishlarni jadal davom ettirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ushbu jarayonda atrof-muhit himoyasiga, “yashil” iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada Prezidentimiz tashabbusi bilan 2025-yilni yurtimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”, deb e’lon qilinishida katta ma’no bor. Bu yil ekologik muammolarni bartaraf etish, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha milliy dasturlarni amalga oshirish bu borada qonunchilikni takomillashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish kabi muhim vazifalarni belgilab beradi va mamlakatimizning xalqaro maydonda ekologik masalalar bo‘yicha tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Davlat rahbari mas’uliyat va jonkuyarlik bilan tinchlikning naqadar zarurligini yana bir bor urg‘ular ekan, bu avvalo, elimiz, Vatanimiz, qolaversa, mintaqa xavfsizligini ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, dunyoda ekologik va texnogen fojialar, qochoqlar muammolari tobora kuchayib borayotgani alohida ta’kidlangani barchamizni mas’uliyatli bo‘lishga chaqiradi. Bu kabi salbiy holatlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatyapmiz. Bunday sharoitda yurtimizda tinchlikni saqlash, keskin vaziyatda kuchli iroda, birlik va hamjihatlikni ta’minlashda deputatlarning mas’uliyati alohida qayd etilgani ham amaliy, ham ma’naviy ahamiyatga ega.

Albatta, biz, xalq vakillari bunday vaziyatga obyektiv baho berishni, uning barcha jihatini vatanparvarlik ruhida his etish hamda shunga mos qonunchilik faoliyatimizni yo‘lga qo‘yishni kun tartibimizdagi muhim vazifaga aylantiramiz. Shu bilan birga, saylovchilarimiz va keng jamoatchilik orasida, ayniqsa, yoshlarimiz bilan muloqotlar olib borganda milliy manfaatlarimiz uchun nima yaxshiyu, nima yomon ekanini anglatishimiz zarur.

Barchamiz Prezidentimizning yanada ogoh va hushyor bo‘lish, siyosiy iroda va madaniyatimizni yangi bosqichga olib chiqish, tinch-totuvlikni, xalqimiz osoyishtaligi va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan g‘oyalari atrofida birlashib, ish olib borishimiz kerak. Zero, davlatimiz rahbari aytganidek, biz bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz.

Mavludaxon XO‘JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Spikeri o‘rinbosari.

Keksa yoshdagi fuqarolarni sportga jalb qilish uchun har bir mahallaga yiliga 10 million so‘m miqdorida mablag‘ ajratiladi.

VATAN VA VIDJON

1 Oltovlon va yettinchi garchi Vatandan ayro tushayotgan bo‘lsa-da, uning muqaddasligiga daxl qilmaydi. Vatan bizni sig‘dirmadi, demaydi. Ular na Vatanidan, na vatandoshlaridan nolishadi. Balki mardlarcha qaror qabul qilishadi. Shu kichik bir epizodda ham olam-olam ma’no mujassamlashgan.

Vatandan tashqarida Vatan yo‘q. Insonning ota-onasi ham, Vatani ham yagona bo‘ladi. Bu borada bahslashish yaramaydi.

Men Vatani haqida bo‘lar-bo‘lmas gaplar tarqatayotganlarga achinaman. Kimlarnidir nog‘orasiga o‘ynayotganlar ojiz, notavon kimsalardir.

Vatani haqida bir noxush xabarni kutayotganlar, ona yurtining muammolarini oshkor qilayotganlar, tug‘ilib o‘sgan yeri to‘g‘risida turli ig‘vo va bo‘htonlarni bor ovozi bilan aytayotganlardan hazar qilaman.

Vatan so‘zi bilan vijdon so‘zi yonma-yon qo‘yilishi, birga turishi zarur. Vatan haqida gapirayotganingizda vijdoningizni o‘rtaga qo‘ying. Ajdodlaringizni, avlodlaringizni tavqi la’natga qoldirmang.

Bu Vatan kimlarni ko‘rmagan. Kimlar o‘tmagan bu zamindan. Lekin ona tuproq mangu qolgan.

Ulug‘ ajdodlarimiz merosini o‘rganayotgan olimlarimiz, ularni o‘z Vatani haqida yomon fikr bildirmaganliklariga e’tibor qaratadi. Garchi, qanchadan-qancha ulug‘larimiz Vatandan uzoqda, o‘zga yurtlarda yashagan bo‘lsa-da, ba’zilari begona tuproqlarda qolib ketsa-da, doim Vatanini ulug‘lagan, Vatanini qo‘msagan, sog‘ingan. Bunga ko‘hna tariximizda misollar juda ko‘p.

Har qanday gunohni kechirsa bo‘ladi. Faqat Vatan va ota-ona oldida qilingan gunohdan tashqari.

Bu haqiqat mashhur kinorejissyor, O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi Zulfiqor Musoqovning “Vatan” filmida ham yaqqol namoyon bo‘lgan. Ushbu filmda o‘g‘il otasiga savol beradi: *“Sizga nima berdi Vataningiz? Shu Vataningizni deb, o‘z nomingizdan, ota-onangizdan, uy-joyingizdan, sevgan yoringizdan ayrildingiz. Butun hayotingiz barbod bo‘ldi. Vatan deb jang qildingiz, qon to‘kdingiz, azob chekdingiz. Xo‘sh, Vataningiz nima berdi sizga?”* Shunda ota javob beradi: *“Vatan ham onaday, undan ta’ma qilish gunohi azim. Vatan – mana bu moviy osmon, mana bu yer, mana bu oqib turgan soy, mana bu keng dala…”*

Mazkur filmni har gal ko‘rganimda ko‘zimga yosh keladi. Vatan haqidagi tasavvurlarimdan ko‘nglim to‘lmaydi.

El-yurtni yaxshi ko‘rmasdan hech qanday natijaga erishib bo‘lmaydi. Uning sevgisi ilhom beradi, kuch beradi, qanot beradi kishiga.

Vatan bizdan emas, biz Vatandan qarzdormiz.

Xorijga borib bilim olish, tajriba almashish muhim. O‘rgangan ilmlarimizni esa Vatan ravnaqi, taraqqiyoti yo‘lida sarflashimiz zarur.

Boy Vatanni, go‘zal Vatanni, farovon Vatanni orzu qilamiz. Lekin uni kim yaratishi kerak?! Albatta, biz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xorijda ishlayotgan qanchadan-qancha yurtdoshlarimizni Vatanimizga chorladi. Ularni munosib ish, yetarli maosh bilan ta’minladi. Buning natijasida ilm-fanimizga xorijning ilg‘or yutuqlari bevosita kirib keldi. Qisqa vaqtda ular o‘zlarining ilmiy maktablarini ham yaratishga kirishdi. Chetdan qaytib kelganlarni rag‘batlantirish tizimi paydo bo‘ldi. Bundan Vatanimiz ham, vatandoshlarimiz ham yutdi, deb hisoblayman.



Tugizovning hayot yo‘li ham bunga misol bo‘la oladi. U 35 yildan beri AQSHda yashaydi. 2023-yilda Samarqand davlat universiteti talabalari va ularning ota-onalari uchun “O‘zingizga ishoning” nomli film tayyorlandi. Kinokartinada oddiy oiladan chiqib, bilim, ta’lim olish orqali yuqori natijalarga erishgan qahramonlarning hayot yo‘li aks ettirilgan. Mazkur filmni tayyorlashda Sharof Tugizov bilan aloqa o‘rnatdik. Bugungi kunda olim biz bilan hamkorlikda katta ilmiy loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

Samarqand davlat universiteti professori, kimyo fanlari doktori, “Shuhrat” medali sohibi Xurshid Bozorov Xitoy Fanlar akademiyasining Shinjon texnika fizika-kimyo institutida 10 yilga

> ***“Ulug‘ ajdodlarimiz merosini o‘rganayotgan olimlarimiz, ularni o‘z Vatani haqida yomon fikr bildirmaganliklariga e’tibor qaratadi. Garchi, qanchadan-qancha ulug‘larimiz Vatandan uzoqda, o‘zga yurtlarda yashagan bo‘lsa-da, ba’zilari begona tuproqlarda qolib ketsa-da, doim Vatanini ulug‘lagan, Vatanini qo‘msagan, sog‘ingan. Bunga ko‘hna tariximizda misollar juda ko‘p.”***

Har bir inson taqdir hukmi bilan qayerda yashashidan qat’i nazar, uning qalbida Vatani bor. Vataniga baxshida etadigan mehri bor, muhabbati bor. Farzandlik burchi va vazifalari bor.

Bizning yaqin hamkorimiz – Kaliforniya universiteti professori, biologiya fanlari doktori, Nyu-York fanlar akademiyasi, Amerika hujayra biologiyasi, mikrobiologlar hamda xalqaro OITS jamiyatlarining a’zosi, asli o‘zbekistonlik Sharof yaqin ishladi. U 2022-yili Samarqandga qaytib keldi. Katta maosh, qulay sharoitni tashlab, Vatanga intildi. Bilim va kuchini mamlakatimiz rivojiga bag‘ishlashga ahd qildi. Uning tashabbusi bilan Samarqand davlat universitetida saraton kasalligiga qarshi dori vositalari yaratish laboratoriyasi tashkil etildi. Mazkur amaliy loyihani bajarish uchun Innovatsion rivojlanish agentligining 8 milliard so‘mlik granti qo‘lga kiritildi. Bugungi kunda 4 nafar xitoylik olim ushbu laboratoriyada hamkorlikda tadqiqot olib bormoqda. Shuningdek, qator davlatlardan kelgan hamkorlik takliflari o‘rganilyapti. Yetti nafar samarqandlik tadqiqotchilar PhD va DSc dissertatsiyalarini himoya qilish uchun ilmiy izlanishlarini davom ettirmoqda.

Jahonning eng mashhur fizik olimlaridan biri, asli o‘zbekistonlik Anvar Zohidov AQSH fuqarosi. 30 yildan buyon Amerikada yashaydi. Amerika fizika jamiyati a’zosi, Dallasda joylashgan Texas universiteti qoshidagi Nanotexnologiya instituti direktori o‘rinbosari, ITMO universiteti gibrid nanofotonika va optoelektronika laboratoriyasi hamrahbari...

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Farmoniga binoan 2023-yilda Anvar Zohidovga “O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi” unvoni berildi. Bundan ruhlangan olim xuddi shu yildan Samarqand davlat universitetida tashkil etilgan Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan Kvant markaziga ilmiy rahbarlik qilmoqda.

Anvar Zohidov rahbarligidagi Samarqand davlat universiteti Kvant markazi xodimlari joriy yilning avgust oyida Jahon banki MUNIS fondining 600 ming AQSH dollari miqdoridagi WB BIRD hamda noyabr oyida 200 ming AQSH dollari miqdoridagi PRIM grantini qo‘lga kiritdi.

Anvar Zohidov Samarqanddagi suhbatlarimizdan birida shunday degan edi:

– Men o‘ttiz yil davomida Vatan sog‘inchi bilan yashadim. Qayerda bo‘lsam ham, qalbim O‘zbekistonda edi. Ona yurtimni jon dilimdan yaxshi ko‘raman. Taqdir ekan, ancha yillar xorijda yashadim. Prezident Shavkat Mirziyoyevning vatanparvarligi, millatparvarligi, ilmparvarligi, mehri meni yana qayta O‘zbekistonga olib keldi. Onadan yangi tug‘ilganday bo‘ldim. Alloh qancha umr bersa, Vatanimga xizmat qilaman. Vatanim oldidagi farzandlik burchimni o‘tayman. Shavkat Mirziyoyevning yangi O‘zbekistonida ilm-fanning ulkan kashfiyotlari yaratilishiga ishonaman...

Maqolamizni bejiz “Vatan va vijdon” deb nomlamadik. Nazarimda Vatan haqida yozayotganimizda, gapirayotganimizda o‘rtada, albatta, VIJDON turishi kerak.

Rustam XOLMURODOV,
Samarqand davlat universiteti rektori,
O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

MONOPOLIYAGA QARSHI BIRGALIKDA KURASHILADI

Bugun Samarqanddagi Xalqaro turizm markazida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)ga a’zo davlatlarning monopoliyaga qarshi qonunchilik talablari buzilishi holatlarini birgalikda bartaraf etish bo‘yicha shtabining 43-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Mazkur yig‘ilish kun tartibidagi muhim mavzular raqobatga qarshi kelishuvlarning oldini olish, narxlarni tartibga solish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Anjuman

Anjumanda Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va O‘zbekiston delegatsiyalari qatnashdi. Ishtirokchilar MDH mamlakatlari monopoliyaga qarshi qonunchiligining hozirgi holatini tahlil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi Xalilullo To‘raxo‘jayev shtab doirasidagi hamkorlikning ahamiyatini alohida qayd etib, MDHga a’zo davlatlar o‘rtasidagi samarali hamkorlik globallashuv tahdidlariga tezkor javob berish imkonini berishi va davlatlar o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanishini ta’kidladi.

Yig‘ilish ishtirokchilari MDH mamlakatlarida raqobat qonunchiligi buzilishlarining oldini olish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni, shu jumladan, raqobat sohasidagi qoidabuzarliklardan jabrlanganlarning fuqarolik huquqini himoya qilish va narxlarni davlat tomonidan tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy jihatlarni muhokama qildi. Shuningdek, tadbirda marketpleys platformalarining shaffofligini oshirish va aksilmonopol komplayens tizimlarini joriy etish masalalari ko‘rib chiqildi.

Har bir davlat delegatsiyasi ushbu choralarning qo‘llanilishi bo‘yicha o‘zaro tajriba almashdi. O‘zbekiston delegatsiyasi noqonuniy mahsulotlarni sotishga javobgarlikni kuchaytirishni taklif qildi va bu ishtirokchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Yig‘ilish doirasidagi tashabbuslar MDH mamlakatlarida raqobat muhitini rivojlantirishga qaratilgan kelajakdagi qarorlar uchun asos bo‘ladi.

29-noyabr kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlarning monopoliyaga qarshi siyosat bo‘yicha davlatlararo kengashining 57-majlisi bo‘lib o‘tadi.

Abdulaziz YO‘LDOSHEV
(“Xalq so‘zi”).

Mashinasozlik korxonasidan qolgan bino nega “muzlatildi”?

To‘qsonni qoralab qolgan Mahmudjon ota Dehqonov yigirma yilga yaqin o‘z mahallasida joylashgan zavodda mehnat qilgan. O‘z davrida korxona ko‘pchilikni ish bilan ta’minlagan. Qishloqdoshlari ro‘zg‘origa baraka kiritgan. Zamona zayli bilan uning mulk shakli o‘zgardi, biroq haqiqiy mulkdorni topmadi chog‘i, cho‘ksa-cho‘kdiki, rivojlanib ketmadi. Bugun katta-katta sexlarga ega zavoddan yakka-yolg‘iz ma’muriy binogina yodgorlik bo‘lib qolgan. Besh yil avval qulf osilgan uch qavatli inshootning oldidan har gal o‘tganida otaxonning yuragi eziladi.

Yechimini kutayotgan muammo

Shovon – To‘raqo‘rg‘on tumani markazidan yigirma chaqirim masofada joylashgan chekka mahalla. Keyingi paytlarda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga qaramay, ushbu aholi maskanida bir qator muammolar saqlanib qolayotgani ko‘pchilikni tashvishga solmoqda. Hududda bitta umumta’lim maktabi, sanoqli xususiy bog‘chalardan tashqari biror ijtimoiy muassasa yo‘q. Bandlikni ta’minlash masalasi, ayniqsa, e’tiborga muhtoj ahvolda. Garchi bu joyda rasmiy ishsizlar soni 30 nafar deya ro‘yxatga olingan bo‘lsa-da, amalda doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan fuqarolar bir necha barobar ko‘p. Xususan, xorijga rizq izlab ketgan yoshlar ko‘plab oilalarda uchraydi. Ba’zilar kundalik xarajati uchun mahalla etagidan o‘tgan soy yoqasidagi norasmiy bir kunlik ish topish maskaniga chiqadi. Aholi orasida “Mardikor bozori” deb nom olgan bu joyda har kuni erta tongda yuzdan ortiq odam to‘planadi. Ular orasida yosh yigitlardan tortib, tajribali kishilargacha bor...

Muammoning ildizi 4300 dan ortiq nufusga ega mahallada mehnat o‘rinlari, xususan, ko‘pchilikni muqim ish bilan ta’minlay oladigan biror jo‘yali korxona yoki jilla qursa, biror o‘n kishini band etgan tadbirkorlik subyektining yo‘qligida. To‘g‘ri, hududda fermer xo‘jaligi, ikkita sartaroshxona, barmoq bilan sanarli savdo do‘konlari, tegirmon, uchta yirik sement g‘isht quyish shoxobchasi, boshqa bir qator yakka tadbirkorlik tuzilmalari bor. Ularda nari borsa, yuzga yaqin kishi kafolatli mehnat o‘rni bilan band. Qolganlar esa...



Savol tug‘iladi, Shovonda, deylik, ko‘p sonli o‘ringa ega ishlab chiqarish korxonasi yoki ular filialini tashkil etish orqali muammoni yumshatishning imkoni yo‘qmi? Chor-atrofda tadbirkorlik harakati avj olayotgan zamonda nega mahallaga biror bir yangi sanoat o‘chog‘i olib kirilmadi? Vaholanki, bu yerda bir paytlar salkam 200 kishilik mehnat jamoasiga ega “Namangan qishloq xo‘jalik mashinalari zavodi” faoliyat ko‘rsatgan. Uning raqamli texnologik dastgohlarga ega sexlarida bog‘dorchilik sohasi uchun texnika va uskunalar ishlab chiqarilgan. Tabiiyki, mahalliy aholi o‘rtasida mashinasozlik sohasida anchagina tajriba ham to‘plangan edi. Biroq korxonani xususiylashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan qator loyihalar kutilgan natijani bermadi. Bu orada korxona sexlari, undagi noyob va qimmatbaho texnologik jihozlar nomi tadbirkoru maqsadi hamyonni qappaytirish bo‘lgan soxta ishbilarmonlar tomonidan sotib yuborildi. Binolar g‘ishti, hatto, poydevorlarning sement bo‘laklarigacha pullandi. Ishlab chiqarish to‘xtadi. Bugun hayhotday korxonadan bitta uch qavatli idora binosigina qolgan. U ham qariyb 10 – 15 yildan beri tadbirkorlar tomonidan qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, ularga bank kreditini olish uchun garov manbai sifatida xizmat qilib kelmoqda, xolos. Oxirgi mulkdor bundan besh yil avval “Bu yerda katta tikuvchilik korxonasi barpo qilaman”, deya egalik huquqini qo‘lga kiritgan edi. Garchi xatti-harakatini aholi astoydil qo‘llab-quvvatlashiga qaramay ishonchni oqlamadi. Boshlanishiga binoning bir qavatiga dastgohlar o‘rnatib, 20 – 30 nafar xotin-qizni ishlatgandek ko‘rindiyu uch oy o‘tmay faoliyatini to‘xtatdi.

– Binoni Namangan shahridagi “Limenur” mas’uliyati cheklangan jamiyati investitsiya kiritish va ish o‘rinlari yaratish sharti bilan sotib olgan edi, – deydi 2019-yildan beri bu joyni qo‘riqlab kelayotgan Abdujabbor Kamolov. – Lekin tadbirkor Ibrohim Q. lafzida turmadi. U binoni garovga qo‘yib, “Agrobank”ning Jomasho‘y bo‘limidan kattagina kredit olgan. Ishi bitib, eshagi loydan o‘tishi bilan hamma narsasini yig‘ishtirganicha kelgan joyiga qaytib ketdi. Shundan buyon inshoot hech kimga foydasi tegmasdan huvullab turibdi.

Aytishlariga qaraganda, kredit qarzdorligi bartaraf etilmagani uchun mijoz va bank o‘rtasidagi tortishuvlar sudgacha borib yetganidan so‘ng mulk moliyaviy muassasa tasarrufiga o‘tgan. Bank binoni sotuvga qo‘ygan. Oradan bir necha yil o‘tganiga qaramay, uni sotib olaman, degan talabgor chiqmayapti. Ba’zilari uning sotish qiymati yuqoriligidan aniq gap aytishmayotgan ko‘rinadi. Bir gal hatto, vengriyalik sarmoyador ham kelibdi. Obyekt temir yo‘lga uzoqligi, bundan tashqari, tabiiy gaz ta’minoti yo‘qligi uchun ko‘ngli chopmagan. To‘g‘ri, obyekt qaysidir talabgorga ma’qul kelmagandir. Lekin bu yerda yarim gektar atrofida bo‘sh hovlisi bilan 1800 kvadrat metr foydali maydonga ega zamonaviy bino turibdi. Aytaylik, tabiiy gaz yo‘qligi sababi keltirilayotgan bo‘lsa, murakkab texnologik ishlovni talab etmaydigan faoliyat turi, masalan, poyabzalchilik, tikuvchilik yoki milliy hunarmandchilikning boshqa turiga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil qilsa bo‘ladi-ku! Buning uchun amaliy harakat, o‘z oyog‘i bilan keladigan sarmoyadorni kutib o‘tirmasdan uni qidirib topib, qiziqtirish kerakmasmi?



Bundan ikki yil avval viloyat hokimining OAV xodimlari bilan uchrashuvida ushbu bino masalasida savol yo‘llaganimizda viloyat rahbari tuman hokimligiga ayni masala bilan jiddiyroq shug‘ullanish topshirig‘ini bergandi. To‘raqo‘rg‘ondagilar biroz harakatlangandek bo‘lishdi, aksiga olgandek baribir binoning “baxti ochilmadi”.

– Ish boshlaganimga to‘rt oy bo‘ldi, – deydi ayni paytda tuman hokimining MFYdagi yordamchisi Ravshanbek Qosimov. – Bandlik, yangi ish o‘rinlari yaratish birinchi darajali vazifamiz. Albatta, yaqin vaqtga mo‘ljallagan rejalar orasida sobiq “Namanganselmash”ning arosatdagi binosini harakatga keltirish masalasi ham bor.

Odatda, kredit ta’minoti sifatida garovga qo‘yilgan bunday obyektlar agar qarzdor o‘z vaqtida to‘lov qilmagan holda sotuvga chiqariladi. Xaridorini topishi bilan qarz yopiladi. Bino yangi mulkdor, u orqali jamiyat manfaatlariga xizmat qila boshlaydi. Shovondagi foydalanishga tayyor bino hamon “muzlatilganicha” qolmoqda.

Qudratilla NAJMIDDINOV
(“Xalq so‘zi”).

Tovarlarni bojxona muhrlari ostida tashishga ruxsat berish guvohnomasini olish bo‘yicha axborot tizimi joriy etiladi.

Biz va tabiat

“Kasaba uyushmalari bog‘i” yashnamoqda

Mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar keng quloch yoyib, barcha hududda ko‘plab mevali va manzarali daraxt nihollari ekilyapti. Bu esa yurtimizda yashil hududlar maydonini kengaytirib, yangi bog‘lar tashkil etilishida muhim o‘rin tutmoqda.



O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ham bunday xayrli tadbirlarning faol ishtirokchisi bo‘lib kelayotir. Bunga joriy yil boshida Federatsiya tomonidan Toshkent viloyatining Nurafshon shahridagi “Qumariq” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida tashkil etilgan “Kasaba uyushmalari Federatsiyasi bog‘i” yorqin misol bo‘la oladi.

– Avvalo, puxta tayyorlangan loyihaga ko‘ra jami 5,5 gektarlik maydonda tegishli agrotexnika talablari asosida yerga ishlov berilib, dastlabki bosqichda 5600 dan ziyod mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekildi, – deydi O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari Muhabbat O‘rmonbekova. – Bog‘dagi nihollarni parvarishlash, o‘z vaqtida to‘g‘ri sug‘orish, tabiiy o‘g‘itlar bilan oziqlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida o‘tqazilgan ko‘chatlarning deyarli barchasi tup qo‘yib, ko‘karishiga erishildi.

Ma’lumotlarga ko‘ra o‘tgan qisqa vaqt ichida “Kasaba uyushmalari bog‘i” hududiga yangi nihollarni o‘tqazish, mavjudlarini mehr bilan parvarishlash bo‘yicha keng qamrovli tadbirlar samarasi o‘laroq bugungi kunda bog‘dagi mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari soni 18 875 taga yetgan.

Qolaversa, bog‘ hududiga 4,3 mingdan ortiq gul ko‘chatlari va butasimon o‘simliklar ham o‘tqazildi. Shu tariqa qisqa vaqt ichida keng maydonda inson ko‘zini yashnatib, bahridilini ochuvchi yaxlit go‘zal manzara hosil qilinib, yashillikning betakror simfoniyasi yaratildi.

Kuni kecha O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan “Kasaba uyushmalari bog‘i”da kuzgi daraxt ekish aksiyasi tashkil etildi. Aksiya doirasida bu maydonga yana 5 ming tup mevali daraxt ko‘chatlari ekildi. Bu hali hammasi emas. Ushbu bog‘ning kelgusida gurkurab yashnashi uchun Federatsiya tomonidan o‘tqazilgan nihollarni tomchilatib sug‘orish texnologiyasi joriy qilinmoqda.

Tiriklikning yorqin ranglari aks etgan mazkur bog‘ hudud ekologiyasiga ijobiy ta’sir qilishi bilan birga, nafaqat Nurafshon shahri, balki viloyatning dilni yayratadigan maskanlaridan biriga aylanishi, shubhasiz.

Rahim ShERQULOV
(“Xalq so‘zi”).

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 29-noyabr

Festival

Turkiy adabiyotning she’riyat bayrami

Poytaxtimizda turkiy davlatlar ijodkorlarini o‘zida jamlagan adabiyot bayrami – XVI xalqaro turkiy she’riyat festivali bo‘lib o‘tmoqda.

Tadbirda qardosh o‘lkalardan tashrif buyurgan 40 dan ortiq yozuvchi-shoirlar, TURKSOY Yozarlar birligiga a’zo adabiy tashkilotlar vakillari, shuningdek, Toshkent shahri va viloyatlarda yashab, ijod qilayotgan bir guruh yurtdoshlarimiz qatnashmoqda.

Qayd etish joizki, mazkur xalqaro anjuman 1992-yildan buyon o‘tkazib kelinadi va yurtimizda ilk bor tashkil etilmoqda. She’riyat bayrami keng jug‘rofiy makonda turkiy adabiyotning umumiy tamoyillarini yaratish, adabiyot ahli o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, eng sara adabiy asarlarning turkiy tilli mamlakatlar tillariga tarjima qilinishini yanada yaxshilashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Har bir festivalda hakamlar e’tirofiga sazovor bo‘lgan ijodkorlar turkiy tilli mamlakatlarning taniqli shoir-yozuvchilari nomidagi “Zamonaviy turkiy adabiyotning eng yaxshi shoiri/yozuvchisi” degan mukofot bilan taqdirlanadi. Shu paytga qadar qator o‘zbek ijodkorlari ham mazkur mukofotga sazovor bo‘lishgan.

Festivalning ilk kunida erta tongdan ishtirokchilar “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘yishdi. Ular bog‘da sayru sayohat qilish bilan birga yurtimizning uch ming yillik tarixi bilan yanada yaqindan tanishdilar. Shuningdek, Adiblar xiyoboniga qilingan sayohat ham ularda katta taassurot qoldirdi. Mamlakatimizda ijodkorlarni ruhlantirish, ular uchun zarur barcha sharoit hamda imkoniyatlarni yaratish, yosh ijodkorlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasidagi ezgu ishlar ishtirokchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.


Shundan so‘ng O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining anjumanlar zalida tadbirning tantanali ochilishiga bag‘ishlangan marosim bo‘lib o‘tdi. Unda mutasaddilar, mehmon ijodkorlar so‘zga chiqib, ushbu festivalning ahamiyati haqida to‘xtaldi, xususan, adabiyot dillarni dillarga, ellarni ellarga bog‘laydigan ko‘prik ekani, bugun so‘z san’ati orqali xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik yanada mustahkamlanayotgani ta’kidlandi.

Tadbir mushoiraga ulandi. Ijodkorlar o‘z ona tilida she’rlaridan o‘qidi. Muhtasham zalni to‘ldirib o‘tirgan qatnashchilar she’riyatning sirli olamiga g‘arq bo‘ldi. Yakunda faol ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi. Shuningdek, 3 nafar ishtirokchi she’riyat bayramining maxsus mukofoti bilan taqdirlandi. Xususan, bu galgi mukofotlardan biri atoqli o‘zbek adibi G‘afur G‘ulom nomi bilan atalgan.

Festival doirasida biri-biridan qiziqarli adabiy anjumanlar, davra suhbatlari, mushoiralar, taqdimotlar, ma’rifiy muloqotlar o‘tkazilishi, yurtimizning diqqatga sazovor joylari va qadamjolariga sayohatlar uyushtirilishi rejalashtirilgan.

26 – 30-noyabr kunlari bo‘lib o‘tayotgan XVI xalqaro turkiy she’riyat festivali ijodkorlarning o‘zaro fikr va tajriba almashishida muhim ahamiyat kasb etishiga shubha yo‘q.

So‘z – tadbir ishtirokchilariga



Ulug‘bek ESDAULET,
TURKSOY Yozarlar birligi raisi, shoir:

– Dunyoda yaqinlar, do‘stu birodarlar diydoridan ham yaxshiroq va mazmunliroq narsa bo‘lmasa kerak. Shu ma’noda, mazkur she’riyat bayramini biri-birini sog‘ingan, talpingan turkiy o‘lkalar qalam sohiblarining ijodiy diydorlashuvi, desak, mubolag‘a emas. Ajdodlarimiz asriy ma’naviy-ma’rifiy, adabiy rishtalar bilan o‘zaro bog‘langan. Bu mushtaraklikni, ildizlarimizning naqadar ko‘hnaligini xalqlarimizning ulug‘ ijodkorlari asarlarida yaqqol ko‘rish mumkin. Bugun tarixan saqlanib kelayotgan qardoshlik rishtalari yangi davrga qadam qo‘ymoqda, bunda shunday adabiy tadbirlarning o‘rni beqiyos, albatta.

O‘zbek ijodkorlari, og‘a-inilarimizga katta rahmat. Ularning samimiyligi, mehmondo‘stligi, bag‘rikengligiga ko‘z tegmasin!




Muso Qozim ARIJAN,
Turkiya Yozarlar birligi raisi:

– Turkiy tilning ulug‘ shoiri, ma’rifat va ma’naviyat xazinaboni hazrat Alisher Navoiy yurtidagi she’riyat bayramida ishtirok etayotganimdan behad mamnunman va g‘ururlanaman.

She’riyat – inson qalbidagi tuyg‘ularning eng go‘zal ifodasi. Bugun bizni she’r ishqi, ijod qilish va do‘stlashish zavqi bir joyga to‘plagani, bir-birimizga yuzma-yuz qilgani, ayniqsa, ahamiyatli.

Xalqaro miqyosda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev adabiyot, ma’naviyat va ma’rifat homiysi, ezgulik, tinchlik, omonlik tarafdori sifatida e’tirof etilayotgani bejiz emas. Bunga Toshkentda turib, yurtingizdagi adabiy muhit, ijodkorlarga yaratilayotgan sharoitlar bilan tanishib, yana bir bor amin bo‘ldim.



Nigor ORIF,
shoir (Ozarbayjon):

– O‘zbekistonda ilk bor bo‘lishim, biroq to‘g‘risini aytaman, o‘zimni bu yerda aslo begona his qilayotganim yo‘q. O‘zbek xalqi mehriyu muhabbati yuzida balqib turadigan, mehmonga o‘zgacha izzat ko‘rsatadigan, xuddi yuz yillik qadrdonlardek suhbatlashadigan insonlari bilan olamaro mashhur.

Albatta, ushbu she’riyat bayrami mamlakatlarimiz o‘rtasidagi adabiy aloqalar rivoji yo‘lida katta ahamiyatga molik, chunki u orqali bir-birimizni yaqindan taniymiz, ijodimizga quloq tutamiz, kelajakdagi hamkorliklar borasida fikrlashamiz. Bu boradagi ishlar allaqachonlar boshlanib bo‘lgan, dersiz, biroq ishoningki, endi u yanada rivojlanadi, yangi ufqlar sari yuz tutadi.

Nasib etsa, Toshkentda o‘tgan damlarimiz, ushbu nufuzli anjuman bergan hissiyotlar yangi asarlar, she’ru dostonlarga ilhom bo‘lsa ne ajab?! Zero, ijodkor qalbi mehr ko‘rgan joyini qo‘msayveradi, uni so‘zga soladi, qog‘ozga tushiradi. Adabiyot bizni hamisha birlashishga da’vat etadi.

Rahmatjon BOBOJONOV
(“Xalq so‘zi”).

MARKAZIY OSIYO – YEVROPA:

“YASHIL” ENERGIYANG ISTIQBOLLI ODIMLARI



“Yashil” energiya O‘zbekiston uchun uglerod neytralligiga erishishida muhim yo‘nalish hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimiz mineral resurslarga qaramlikni kamaytirishga faol kirishdi. U texnologik innovatsiyalarni rivojlantirmoqda va ekologik barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydigan infratuzilmani yaratishga intilmoqda.

Bugun mamlakatimiz xorijiy hamkorlar va kompaniyalar bilan yirik “yashil” loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishdi. Xususan, Bokuda imzolangan uch tomonlama hujjat mamlakatimizga qayta tiklanuvchi energiyani Yevropa bozorlariga uzatish imkonini beradi.

Nuqtai nazar

Uch mamlakat energotizimlari birlashtiriladi

BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi (COP29)da so‘zga chiqqan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayta tiklanuvchi energiya iqtisodiy maqsad emas, balki kelajakka qo‘shilayotgan hissa, kelgusi avlodlar oldidagi mas’uliyat tuyg‘usining natijasi ekanini ta’kidladi. Loyihaning ekologik ahamiyati beqiyos. Uzatiladigan energiya – bu shamol va quyosh energiyasi bo‘lib, qayta tiklanadigan va toza manba hisoblanadi hamda iqlimga ta’sirni yumshatish imkonini beradi. Asosiysi, mamlakatlarimiz qayta tiklanuvchi energiyaning katta zaxiralariga ega bo‘lib, global energetik o‘zgarishlarga salmoqli hissa qo‘shishi mumkin.

Ta’kidlash joizki, “yashil” energetikani jadal rivojlantirish bo‘yicha katta dastur qabul qilingan. Mamlakatimizda har yili 2 gigavattga yaqin quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilmoqda. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish bo‘yicha 28 loyiha ustida faol ish olib borilmoqda. Bundan tashqari, joriy yil oxirigacha tarmoqqa qo‘shimcha 2,6 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlari va 300 megavattli energiya saqlash tizimlari ulanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 40 foizga yetkazish, shuningdek, 4,2 gigavattlik energiya saqlash tizimlarini yaratish rejalashtirilgan. Qozog‘iston va Ozarbayjonda ham bu borada yirik loyihalar amalga oshirilayotgani e’tiborga molik. Loyihani hayotga tatbiq etishni jadallashtirish, jumladan, qo‘shma korxona tashkil qilish, texnik hujjatlarni ishlab chiqish hamda kelishish va boshqa tartib-taomillarni amalga oshirish borasida ham kelishib olindi.

O‘zbekiston, Qozog‘iston va Ozarbayjon o‘rtasida imzolangan kelishuvning amaliy natijalari uch mamlakat iqtisodiyotini birlashtiruvchi “yashil ko‘prik” sifatida O‘rta yo‘lak rivojlanishiga ko‘maklashadi. Bu, birinchi navbatda, shamol va quyosh elektr energiyasining rivojlanishidir.

Loyihaga ko‘ra uch mamlakat o‘zlarining energotizimlarini yuqori voltli kabel bilan birlashtiradi. Uni Kaspiy dengizi tubi bo‘ylab



yotqizishadi. Bunday energiya integratsiyasi yashil energiyani Yevropaga eksport qilish imkonini beradi.

“Yashil yo‘lak” qayta tiklanadigan manbalar integratsiyasida muhim bosqich

Bokuda COR29 konferensiyasi doirasida “Yashil yo‘lak” loyihasini amalga oshirish yuzasidan qo‘shma korxona tashkil etish bo‘yicha hukumatlararo bitim imzolandiki, bu bitim loyihani ilgari surish uchun muhim qadam bo‘ladi, uni tezkorlik bilan amalga oshirishga zamin yaratishi kutilmoqda. Unga ko‘ra texnik-iqtisodiy asoslarni tayyorlash uchun CESI (Centro Elettrotecnico Sperimentale Italiano) konsalting kompaniyasini jalb etish rejalashtirilmoqda. Bu jarayon taxminan bir yil davom etadi, shundan so‘ng qurilish ishlari boshlanadi.

Ushbu “yashil” loyihani moliyalashtirishga bir qancha xalqaro moliya institutlari ham qiziqish bildirmoqda. Qurilish taxminan 3-4 yil davom etishi kutilmoqda. Bundan tashqari, 2030-yilga borib O‘zbekistonning Shimoli-G‘arbiy mintaqasida elektr energiyasi (shamol va quyosh energiyasi) ishlab chiqarish infratuzilmasi va quvvatlari to‘liq tayyor bo‘ladi. O‘zbekiston, Ozarbayjon va Qozog‘iston qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘z energiya tizimlariga integratsiyalash borasida sezilarli yutuqlarga erishmoqchi. Bu uch davlat qayta tiklanadigan energiya manbalarini Yevropaga olib kirish uchun muhim transkontinental sa’y-harakatlarni boshlayotgani ekspert doiralarda yuqori baholanyapti. Ushbu tashabbus O‘zbekistonning, xususan, shamol va quyosh energetikasi sohasida rivojlanayotgan katta “yashil” ishlab chiqarish salohiyatidan hamda Qozog‘istonning qayta tiklanadigan energiyasidan Kaspiy dengizi, Ozarbayjon, Gruziya va oxir-oqibat Qora dengiz va Ruminiya orqali Yevropaga o‘tkazish imkoniyatlaridan foydalanadi.

Asosiysi, ushbu tashabbus – uchala mamlakatdagi daromadlarni oshirish, ish o‘rinlari yaratish va karbonat angidrid chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirish imkoniyati. Ayni chog‘da elektr tarmoqlarini o‘zaro bog‘lash resurslardan foydalanishni soddalashtiradi. Loyihada elektr energiyasini uzoq masofalarga samarali uzatishni ta’minlaydigan yuqori kuchlanishli to‘g‘ridan-to‘g‘ri tok (HVDC) texnologiyasi qo‘llaniladi. Suv osti HVDC kabeli Yevropaga elektr energiyasini eksport qilishda barqaror infratuzilmani yaratishga xizmat qiladi.

Xo‘sh, o‘zimizda elektr quvvatiga talab ortib borayotgan bir sharoitda eksportni qanday amalga oshiramiz? Gap shundaki, 2030-yilga borib O‘zbekistonda elektr energiyasi iste’moli 130 mlrd. kVt/soatdan oshishi kutilmoqda. Biroq quyosh va shamol resurslaridan olinishi kutilayotgan ortiqcha energiya eksport uchun yetarli energiya beradi. “Yashil yo‘lak” deb nomlangan tashabbus Markaziy Osiyoda energetika sohasidagi hamkorlik va qayta tiklanadigan manbalar integratsiyasida muhim bosqich bo‘ladi.

> ***“Mamlakatimizda har yili 2 gigavattga yaqin quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilmoqda. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaratish bo‘yicha 28 loyiha ustida faol ish olib borilmoqda. Bundan tashqari, joriy yil oxirigacha tarmoqqa qo‘shimcha 2,6 gigavatt qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish quvvatlari va 300 megavattli energiya saqlash tizimlari ulanadi.”***

Mintaqamiz mamlakatlari uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar

Strategik sheriklik to‘g‘risidagi bitimning imzolangani Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqalarining uch tomonlama hamkorligini rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ladi. Hujjat mamlakatlarimiz energetika tizimlarining integratsiyalashuvi, shuningdek, Yevropa davlatlari va boshqa bozorlarga ekologik toza energiya yetkazib beruvchi ishonchli yo‘laklarni shakllantirish uchun yangi imkoniyatlarga yo‘l ochadi. Uch mamlakatning ulkan salohiyatini hisobga olgan holda Qozog‘iston, O‘zbekiston va Ozarbayjon birgalikdagi sa’y-harakatlar bilan qit’ani toza, ishonchli va arzon energiya bilan ta’minlaydi.

Shunday qilib u Yevropa energiya mustaqilligining lokomotiviga aylanishi mumkin. Bugungi kunda har uchala davlat ham xalqaro investitsiyalarni jalb qilmoqda, “yashil” energiyani faol rivojlantirmoqda, quyosh va shamol energiyasini joriy etmoqda. Loyihada qatnashish Markaziy Osiyo mamlakatlariga iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha global sa’y-harakatlarga hissa qo‘shish imkonini ham beradi. Bularning barchasi Parij kelishuvi maqsadlariga va boshqa xalqaro ekologik majburiyatlarga mos keladi.

Bundan tashqari, bugungi kunda xalq-aro moliya institutlari qayta tiklanadigan energiya manbalariga oid loyihalarga sarmoya kiritishga tayyor. Bu Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun energiya tizimlari va infratuzilmasini rivojlantirishga kapital jalb qilish imkoniyatlarini ochadi. Shuningdek, bu Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar, jumladan, xorijiy sarmoya va texnologiyalarni jalb etish imkoniyati hamdir. Qolaversa, Yevropa bozorlari bilan integratsiya Markaziy Osiyo mamlakatlariga energiya tizimlari barqarorligini oshirishga yordam beradi. Bu borada barcha ishtirokchilar tomonidan mavjud ichki infratuzilmani va savdo ko‘lamini kengaytirish, ekologik toza energiya manbalaridan Yevropaga elektr energiyasi yetkazib berish uchun yangi kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishga kelishib olindi.

E’tiborga molik jihat – Yevropa davlatlari “Qora dengiz suv osti elektr taqsimlash tarmog‘i” loyihasiga ulanish bilan bog‘liq texnik va moliyaviy masalalarni o‘rganish bo‘yicha hamkorlikda ishlashga qiziqish bildirdi. Asosiysi, Qozog‘iston, Ozarbayjon va O‘zbekiston energetika tizimlari hozirda yangi chaqiriqlarga moslashish va barqaror rivojlanishga qaratilgan modernizatsiya jarayonida. Bitim doirasida mamlakatlar infratuzilmani birgalikda rivojlantirishni kuchaytirishni rejalashtirmoqda, bu esa yashil energiya eksporti va tranziti uchun ishonchli kanallarni topish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu kelishuv nafaqat Yevropaning energiya manbalarini diversifikatsiya qilish, balki ishtirokchi davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yaxshilash imkonini beradi.

Mamarasul XUDOYQULOV,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti Iqtisodiyot va menejment kafedrasi mudiri, PhD., dotsent.

REKLAMA

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTI

quyidagi kafedralar bo‘yicha lavozimlarga tanlov e’lon qiladi:

- Maqom cholg‘u ijrochiligi kafedrasi — katta o‘qituvchi (4), dotsent (1), professor (1);
- Maqom xonandaligi kafedrasi — katta o‘qituvchi (2), dotsent (2), professor (2);
- Doston ijrochiligi kafedrasi — katta o‘qituvchi (2);
- Bastakorlik, kompozitorlik va umumiy fortepiano kafedrasi — katta o‘qituvchi (3);
- Vokal va cholg‘u pedagoglari tayyorlash kafedrasi — katta o‘qituvchi (5), dotsent (2);
- O‘zbek maqomi tarixi va nazariyasi — o‘qituvchi (2), katta o‘qituvchi (1), dotsent (1);
- Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasi — katta o‘qituvchi (2).

Tanlovda ishtirok etish uchun da’vogarlar quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- rektor nomiga ariza;
- xodimlar shaxsiy varaqasi;
- oliy ma’lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarning nusxalari;
- o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari ro‘yxati;
- mutaxassislik bo‘yicha oxirgi uch o‘quv yilida malaka oshirganligi to‘g‘risidagi guvohnoma va sertifikatlar nusxasi.

Arizalar e’lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institutining xodimlar bo‘limi tomonidan qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Mustaqillik shohko‘chasi, 31-uy.
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti.
Telefon: 71-237-35-75, 90-976-12-29.

“Ipak Yo‘li” AITB rahbariyati va xodimlariga ixtiyoriy tibbiy sug‘urta shartnomasini tuzish uchun sug‘urta tashkilotlari orasida tanlov o‘tkazilishini ma’lum qiladi

“Ipak Yo‘li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki ixtiyoriy tibbiy sug‘urta qilish bo‘yicha shartnoma tuzish maqsadida sug‘urta tashkilotlari orasida tanlov o‘tkazilishi haqida ma’lum qiladi.

Tanlovda ishtirok etish va tanlovga oid hujjatlarni olish uchun quyidagi manzilga murojaat etishingiz mumkin:

Indeks: 100017.Toshkent shahri,

Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 2-uy.

Tanlov takliflarini qabul qilishning so‘nggi kuni 2024-yil 13-dekabr soat 12:00 gacha.

Murojaat uchun telefonlar: 78-140-69-39, 78-140-69-00 (ichki: 1258).
Mas’ul xodim: Aleksey Ten.
E-mail: a.ten@ipakyulibank.uz

Mamlakatimizda tajribali dirijyorlar va orkestr ijrochilarining mahorat maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-1142. 11 728 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.10 Topshirildi — 23.30 1 2 3 4 5 6